

Mustaqillik yillarida arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish borasida ayrim mulohazalar

Shuxrat Kilichev

***Mutaxassislik: 5A120401- Arxeologiya
(1-bosqich)***

Ma'lumki, arxeologik yodgorliklar tariximizning qadimgi va eng qadimgi davri haqida malumot beruvchi deyarli asosiy manba hisoblanadi. Zero, hozirgi vaqtda yurtimizdagi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tarkibidagi aksariyat tarix va o'lkashunoslikka ixtisoslashtirilgan muzeylarning eksponatlarini asosiy qismini aynan arxeologik yodgorliklarda aniqlangan osori atiqalar tashkil etishi fikrimiz dalilidir.

Halqimizning o'tmish tarixini o'zida jamlagan arxeologik yodgorliklar bizning kunlarda oddiy tepaliklar sifatida saqlangan bo'lib, ular xalq orasida Oqtepa, Sariqtepa, Ko'ktepa kabi nomlar bilan atalib kelinadi.

Hozirgi kunda yurtimizda saqlangan arxeologik yodgorliklar 8 mingdan ziyod bo'lib, ular shaharlar, qishloqlar, qo'rg'onlar, saroylar, ko'shklar, eng qadimgi odamlar yashagan manzilgohlar, turli xil inshoot qoldirlari (koriz, sardoba, ko'priklar va h.k.) xarobalari hisoblanadi. Shu bilan birga ajdodlarimiz qoldirgan qadimgi sanat namunalari – petrogliflar, qadimgi mozar qo'rg'onlar ham arxeologik yodgorlik sirasiga kiradi.

Arxeologik yodgorliklar tariximiz, madaniyat va manaviyatimiz hamda qadriyatlarimiz timsoli sifatida baholanar ekan, uni saqlab avaylash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifadir. Afsuski, o'tgan asrning 60-80-yillarida yurtimizdagi ko'pgina yodgorliklar qisman yoki to'liq buzilgan bo'lib, bu holat ko'plab arxeologik yodgorliklarni paxta ekin maydonlarini kengaytirish, tepalik tuprog'ini ekinzorlarga o'g'it sifatida solinishi natijasida yuzaga kelgan.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq madaniy merosimizni jumladan, arxeologik yodgorliklarni saqlash, himoya qilish va ulardan foydalanish to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, yodgorliklarni saqlash yurtimizning Konstitutsiyasida ham belgilangan bo'lib, bu borada 49 moddada quyidagilar ta'kidlangan: "Fuqarolarlar O'zbekiston xalqining tarixiy, manaviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir" [1].

Shu bilan birga 2009-yil 13-oktyabrda qabul qilingan "Arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida [2]"gi qonun arxeologik yodgorlik va uni muhofaza qilish hamda undan foydalanishning xuquqiy asoslarini qayd etdi.

Yuqorida qayd qilinganidek arxeologik yodgorliklar tarixning moddiy namunasi bo'lib, uning qisman yoki to'liq buzilishi tariximizning qaysidir qismini butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda arxeologik yodgorliklarni qisman yoki to'liq buzilishi ikki omil – tabiiy tabiat jarayonlari va inson omillari bilan bog'liq hisoblanadi.

Arxeologik yodgorliklarini tabiiy tabiat jarayonlari natijasida buzilishi, bu birinchi navbatda daryo, soylarning qirg'oqlarini tabiiy eroziyasi, yog'ingarchilik natijasida yodgorliklar chekkalarini qo'porilib tushishi hisoblanadi. Malumki, yurtimizdagi aksariyat qadimiy shahar, qishloq, manzilgohlar xarobalarining katta qismi suv manbaiga yaqin joylashgan bo'lib, daryolarning qirg'oqlarini yemirilishi, o'zanlarning o'zgarishi, toshqin va sellar kabi tashqi tasirlar natijasida yodgorliklarni daryoga yaqin qismlarining yemirilishiga va qo'porilib tushishiga olib kelmoqda. Bunday yodgorliklar sirasiga Dabusiya, Kofirqala, Axsiket kabi qadimiy shahar xarobalarini kiritish mumkin. Albatta, bunday jarayonni oldini olish juda qiyin bo'lib, ayrim holatlarda buning iloji yo'q. Shu bois yemirilishi mumkin bo'lgan hududlarni arxeologik jihatdan o'rganish hamda imkoni bo'lsa daryo qirg'oqlarini mustahakamlash uchun kompleks chora tadbirlarni ko'rish samarali natija beradi.

Yodgorliklarning holatiga tabiiy omil bilan birga inson omili ham malum darajada ta'sir ko'rsatadi. Malumki, mustaqillik yillarida yurtimizda keng ko'lamli qurilish va obodonchilik ishlari olib borilmoqda. Ko'plab turarjoylar, ishlab chiqarish korxonalari, kommunikatsiya inshootlari (yo'llar, elektr tarmoqlari, aloqa liniyalari va h.k.) bunyod etilmoqda. Bu borada yodgorliklarni muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan moddiy madaniy meros ob'ektlari muhofaza tegralari loyihalarining shaharsozlik va loyihalash hujjatlariga, shuningdek mo'ljallanayotgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarining moddiy madaniy meros obyektlarini asrash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi tashkil etiladi va amalga oshiriladi [3]. Shu bilan birga Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Xiva kabi qadimiy shaharlarda olib borilayotgan qurilish ishlarida qonunchilikda belgilangan tartibda arxeologik kuzatuv ishlarini [4] olib borish, moddiy madaniy meros obyektlar atrofida bosh rejaga asosan loyihalash, qayta qurish, qurilish va obodonlashtirish ishlarini rejalashtirishni Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda amalga oshirish ham muhim katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar yodgorliklarni 55-70 foizi qishloq hududlarida, dala maydonlarida joylashganligini ko'rsatmoqda[5]. Bu holatda qonunchilikda belgilangan tartibda yodgorliklar atrofida muhofaza tegralarini aniqlash yodgorliklarni qisman yoki butunlay buzilishining oldini olish imkonini beradi. Chunki, muhofaza tegralarini mavjud bo'lmasligi yodgorliklar atrofida yoki ularning yuzasiga ekin ekilish holatini yuzaga keltirishi yoki bu erdan turli maqsadlar uchun tuproq olinishiga olib kelishi mumkin.

O'zR FA Arxeologik instituti va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi bilan birgalikda arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olish va katalogini yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar jarayonida qariyb 30 foiz yodgorliklar qabriston sifatida foydalanilayotganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, birgina Shahrisabz tumanida bu ko'rsatkich 23 foizni

tashkil etmoqda. Zero, sobiq sho‘rolar davrida amalga oshirilgan ushbu amaliyot natijasida yodgorliklarni qariyb 2 metrlik madaniy qatlamni buzilishiga olib kelgan.

Ayni vaqtda yodgorliklar noto‘g‘ri, noqonuniy ravishda olib borilgan qazishmalar, yodgorliklar yoki uning atrofidan tuproq olinishi kabi jarayonlar ham arxeologik yodgorliklarning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi qayd qilingan omillarni tahlil qilgan holda yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishda quyidagi kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish samarali natija beradi.

Birinchidan Respublikadagi arxeologik yodgorliklar katalogini yaratish va yagona GIS sistemasiga kiritish hamda yodgorliklarni muhofaza tegrallarini belgilash. Hozirgi vaqtda Samarqan, Farg‘ona, Namangan, Andijon viloyatlarida ushbu ishlar deyarli o‘z yakuniga yetgan bo‘lsa, qolgan viloyatlarda bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, yodgorliklar muhofaza qilishda keng aholi qatlamini jalb etish va ularda o‘z tarixiga, qadriyatiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish va bu borada ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish. Zero, har bir fuqaro o‘zining shahri, qishlog‘i, mahallasida joylashgan arxeologik yodgorlik haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lib, uning ahamiyatini anglab etsagina halqimizning tarixiy, manaviy va madaniy merosini avaylab asrashni o‘z burchi deb biladi. Ayni vaqtda Afrosiyob, Axsikent, Qanqa, Dobusiya, Kofirqala, Sopollitepa, Jarqo‘ton kabi yirik arxeologik yodgorliklarga mahalliy va xorijiy turistik marshrutlar uyushtirish ham aholi orasida arxeologik yodgorliklar ahamiyatini yanada oshishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, yodgorliklarni saqlash borasidagi qonunlarni ijrosi davlat nazoratini kuchaytirish va bu borada keng jamoatchilik institutlari- yani mahallalar nazoratini yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2008.
2. 2009 yil 13 oktyabrda №O‘RQ-229-sonli “Arxeologik meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent sh.
3. 2001 yil 30 avgustda №269-II-sonli “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent sh.
4. Raimqulov A.A., Suyunov S.S., Saidov M.M, Rajabov A.YU. O‘zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 5-tom. Qashqadaryo viloyati. 1 qism. Yakkabog‘ tumani. Samarqand, 2013;

5. Raimqulov A.A., Suyunov S.S., Saidov M.M., Qodirov R.M., Sandiboev A.N. O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 5-tom. Qashqadaryo viloyati. 2 qism. Shahrisabz tumani. Samarqand, 2014;

Magistrantlarning XIV ilmiy konferensiyasi materiallari-2014